

## COMMON EUROPEAN FRAMEWORK OF REFERENCE (CEFR)

**Arzikulova Nazokat Nurali qizi,**  
**CHDPU XTA nemis tili yo'nalishi 1-kurs talabasi**  
**Nuriddinova Hurmatoy Sherzod qizi,**  
**CHDPU XTA ingliz tili yo'nalishi 1-kurs talabasi**  
**Ilmiy rahbar: Shabiddinova Zera Ismetovna**

### Annotatsiya

Ma'lumki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi dunyo hamjamiyatida o'z o'rniga ega, kelajagi porloq mamlakat sifatida tan olinmoqda. Yurtimiz ravnaqi yo'lida qilinayotgan tub islohotlar haqida gap borar ekan, bu o'rinda bizga har tomonlama beg'araz yordam berayotgan xorijiy davlatlarning, xususan Germaniya federativ respublikasining xizmatini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Kalit so'zlar: Nemis tili, fan, madaniyat, cefr, pedagogika, o'qitish, xorij, aloqalar, maktab, oliy ta'lim.

### Annotation

In this article, Uzbek ceremonial folklore and their importance today are revealed. The history of ritual songs, which have been preserved in the memory of the people from ancient times to the present day, and their performance in the regions will be discussed.

Key words: German language, science, culture, geography, pedagogy, teaching, abroad, communication, school, higher education.

Tillar bo'yicha umumiy Yevropa ma'lumot tizimi: o'rganish, o'qitish, baholash (Common European Framework of Reference, CEFR) Yevropa Ittifoqida qo'llaniladigan chet tilini bilish darajalari tizimidir. Yevropa Kengashi tomonidan 1989—1996-yillar oralig'ida „Yevropa fuqaroligini olish uchun til o'rganish“ loyihasining asosiy qismi sifatida ishlab chiqilgan. CEFR tizimining asosiy maqsadi barcha Yevropa tillari uchun qo'llaniladigan baholash va o'qitish usulini taqdim etishdan iborat. 2001-yilning noyabr oyida Yevropa Ittifoqi Kengashining natijalariga ko'ra, tilni bilish darajasini baholash hamda milliy tizimlarni yaratish uchun CEFR dan foydalanishni tavsiya qilinmoqda.

Har bir daraja uchun talabaning o'qish, tinglash, gapirish va yozishda ega bo'lishi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalari tavsiflanadi. CEFR tizimi tillarni bilish darajasini uchta: A, B va C guruhlariga ajratgan holda baholaydi. CEFR darajalari sifatida berilgan baho quyidagilarni anglatadi:

A1 va A2 darajalar – tilni endi o'rganayotgan, boshlang'ich bosqichdagi foydalanuvchi, B1 va B2 darajalar — tildan erkin foydalana oladigan, o'rtachadan



yuqori darajadagi foydalanuvchi; C1 va C2 darajalar – tilni mukammal darajada biladigan foydalanuvchilar

Ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda dastlab Oksford va Kembrijda ishlab chiqarilgan darsliklarda qo‘llanilgan va hozirgacha o‘quv qo‘llanmalari va test tizimlarida (masalan, TrackTest) keng qo‘llaniladigan norasmiy tizim ishlab chiqilgan. Keng qo‘llanilishiga qaramay, „Britaniya“ tizimi ko‘plab o‘zgarishlarga ega va quyida faqat eng ko‘p qo‘llaniladigan (masalan, darslik nomlarida) daraja nomlari keltirilgan.

Britanacha til bilish darajasining umumiy Yevropa va Amerika (ILR) tasnifi o‘rtasidagi tahminiy muvofiqlik quyidagicha:

Beginner / Starter — A1 — ILR Level 0

Elementary — A2 — ILR Level 1

Pre-Intermediate — A2/B1

Intermediate — B1 — ILR Level 2

Upper-Intermediate — B2 — ILR Level 3

Advanced — C1 — ILR Level 4

Proficiency — C2 — ILR Level 5

Bu yildan Oliy o‘quv yurtlariga imtihon topshirganda CEFR yoki Chet tilini bilish darajasi testidan tegishli sertifikatga ega bo‘lgan yoshlarimizga imtiyozlarga ega bo‘lishi katta yangilik bo‘ldi. Chet tilini bilish darajasi nimalardan iborat va qanday tartibda o‘tkaziladi? Ushbu maqolamda yuqoridagi savollarga javob berishga harakat qilaman.

CEFR imtixonini IELTSdan farqli o‘laroq 5ta bo‘limdan iborat. Ular:

Tinglab tushunish (Listening) bo‘limi: eshitilgan audiomatnlarning asosiy mazmunini va detallarini tushunish ko‘nikmalari tekshiriladi.

O‘qib tushunish (Reading) bo‘limi: har xil janrlardagi autentik matnlarning asosiy mazmunini va detallarini tushunish ko‘nikmalari tekshiriladi.

Leksik va grammatik kompetensiyalar (Lexical Grammatical Competence) bo‘limi: leksik va grammatik birliklarni kontekstda to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmalari tekshiriladi.

Yozish (Writing) bo‘limi: berilgan vaziyat yoki mavzu asosida, topshirilayotgan darajaga mos leksika va grammatikani qo‘llagan holda yaxlit matn tuza olish ko‘nikmalari tekshiriladi.

Gapirish (Speaking) bo‘limi: savollarga javob bera olish, og‘zaki taqdimot qila olish, muammoga nisbatan o‘z fikrini bildirib asoslab bera olish ko‘nikmalarini tekshiradi.



Testning yozma qismi (tinglab tushunish, o'qib tushunish, leksik va grammatik kompetensiyalar, yozish bo'limlari) bir kunda, gapirish bo'limi alohida o'tkaziladi.

Har bir bo'limda maksimal ball 30 ballni tashkil qiladi. Jami maksimal ball: 150 ball. Testdan muvaffaqiyatli o'tish uchun maksimal ballga nisbatan 60% (90 ball) yoki undan yuqori yig'ish kerak.

#### 1. LISTENING

Tinglab tushunish (30 daqiqa / 4 qism / 30 savol)

Tinglab tushunish bolimida har bir matn ikki martadan eshittiriladi va matn eshittirilishidan oldin matnga oid savollar bilan tanishib chiqish uchun 30 soniya vaqt beriladi.

Har bir savol: 1 ball

Maksimal: 30 ball

Davomiylik: 35 daqiqa

Qoshimcha vaqt: 10 daqiqa

#### 2. READING

O'qish 4ta qism va 30ta savoldan iborat bo'ladi.

Davomiylik: 70 daqiqa

Eng katta tekst: 400 ta so'z

Har bir savol: 1 ball

Maksimal: 30 ball

#### 3. LEXIAL AND GRAMMAR COMPETENCE

Leksik va grammatik kompetensiyalar (30 daqiqa / 3 qism / 30savol)

Davomiylik: 30 daqiqa

Har bir savol: 1 ball

Maksimal ball: 30 ball

#### 4. WRITING

Yozish (45 daqiqa / 2 topshiriq)

1-topshiriq: 10 ball

2-topshiriq: 20 ball

Yozma nutq bo'limining maqsadi nomzodning fikrini chet tilida yozma ravishda to'g'ri va ravon ifodalay olish qobiliyatini tekshirishdir.

1-topshiriq: shaxsiy yozishmalar. Nomzod berilgan mavzu va tayanch savollar asosida xat yozishi lozim(60-80 so'z/10 ball) Mavzuda muammo ko'tariladi va xatda ushbu muammo yuzasidan fikr bildiriladi.

2-topshiriq: shaxsiy tajribaga asoslangan insho yozish (120-140 so'z/20 ball). Nomzod tayanch savollar asosida berilgan mavzuda qisqa insho yozishi kerak.



## 5. SPEAKING

Gapirish (15 daqiqa / 3 qism / 30 ball)

Og'zaki nutq bo'limining maqsadi nomzodning fikrini chet tilida og'zaki tarzda to'g'ri va ravon ifodalay olish qobiliyatini tekshirishdir.

1-qism

Suhbat tarzida talabgorga kundalik mavzularda, shaxsiy hayotiga oid savollar beriladi va talabgor berilgan savollarga tayyorgarliksiz javob bera olishi lozim. Bu qism 4 daqiqa davom etadi.

2-qism

Talabgordan berilgan muammoli vaziyat asosida 2 daqiqali monolog tuzishi talab qilinadi. Talabgor nutqi davomida muammoga o'z yondashuvi (muammoga yechim)ni ifodalashi kerak. Savollar nomzodning shaxsiy hayotiga oid mavzular doirasidan olinadi.

Talabgorga tayyorgarlik uchun 1 daqiqa vaqt beriladi.

3-qism

Talabgorga 2-qism (monolog) mavzusidan kelib chiqqan holda qo'shimcha ma'lumotlar beriladi. Talabgorga tayyorgarlik uchun vaqt berilmaydi.

Nemis ta'limida bir yil ichida barcha darajalarni tugatish mumkin. Nemis tilida qancha daraja va bir darajadan ikkinchisiga o'tish uchun qancha vaqt kerak bo'ladi – nemis tilini o'rganishni istaganlar uchun eng qiziq mavzular.

Nemis tilini o'rganish uchun qancha vaqt ketadi?

Nemis tilini o'rganishni istaganlar A0 dan C2 gacha 7 darajani to'ldiradilar. Ushbu darajalar Evropa Ittifoqi standartlariga muvofiq belgilanadi. O'zingizning darajangizni to'g'ri aniqlash va darsni to'g'ri sinfda boshlash uchun boshida joylashtirish testi o'tkaziladi. Yangi boshlanuvchilar to'g'ridan-to'g'ri A0 darajasiga etkaziladi. Biz barcha darajadagi guruhlarini va taxminiy mashg'ulotlar muddatlarini quyida ko'rsatib o'tishga harakat qilamiz, chunki bu darajalarga qarab qancha muddatda bajarilishi mumkin.

A0 boshlang'ich darajasi: Ushbu daraja eng asosiy kirish darajasidir, unda umuman nemis tilini o'rganishga tayyorgarlik, alifbo, imlo qoidalari va ba'zi o'ziga xos naqshlar ta'kidlangan. Ko'pgina kurslarda trening to'g'ridan-to'g'ri A1 darajasidan boshlanadi, ammo A1 ga o'tish uchun siz bilishingiz kerak bo'lgan ba'zi narsalar mavjud.

A1 boshlang'ich darajasi: Ushbu darajadagi standart kurs guruhi haftasiga 20 soatlik mashg'ulot bilan taxminan 8 hafta ichida yakunlanadi. Intensivkurs guruhida haftasiga 30 ta dars taxminan 60 hafta ichida yakunlanadi.





A2 boshlang'ich nemis darajasi: Ushbu darajadagi guruhda standart kurs guruhi taxminan 20 hafta oxirida haftasiga 8 soatlik mashg'ulot bilan yakunlanadi va Intensiv kurs guruhi taxminan 30 hafta ichida haftasiga 6 ta dars bilan yakunlanadi.

B1 O'rta nemis darajasi: Ushbu darajadagi guruhda jarayon A1 va A2 darajalaridagi kabi ishlaydi.

B2 Germaniyaning yuqori va o'rta darajasi: Ushbu darajadagi guruhda standart kurs guruhi taxminan 20 hafta oxirida haftasiga 10 soatlik mashg'ulot bilan yakunlanadi va Intensiv kurs guruhi taxminan 30 hafta ichida haftasiga 6 ta dars bilan yakunlanadi.

C1 rivojlangan nemis darajasi: Kurs guruhini tugatishning standart vaqti ushbu guruh talabalari uchun har xil bo'lishi mumkin bo'lsa-da, Intensiv kurs guruhi mashg'ulotlari 6 hafta davomida yakunlanadi.

C2 nemis tilini bilish darajasi: Bu nemis tili darajalarining so'nggi guruhi. Ushbu guruhdagi mashg'ulotlarning davomiyligi shaxslarning individual ko'rsatkichlariga qarab farq qiladi.

Oliy ta'lim maskanlarida o'qitilayotgan nemis tili o'quv rejasida pedagogika, psixologiya va metodika fanlari o'quv soatlarini yanada ko'paytirish kerak. Bu o'qituvchi uchun juda zarur bo'lgan kasbiy tayyorgarlikni kafolatlaydi. Shu sababdan nemis tili o'qituvchilari tayyorlash vazifasi asosan pedagogika universiteti va institutlari zimmasiga yuklatilmog'i lozim. Biroq, afsuski, ayni paytda ahvol teskari. Yetakchi hisoblanmish Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (TDPU)da Germaniyaning Frayburg va Haydelberg pedagogika universitetlari bilan hamkorlik shartnomalari bo'la turib, nemis tili bo'limi va kafedrasini 2016 yili tugatilgan. Yurtimizda nemis tili o'qituvchilari tayyorlash ham nopedagogik, jumladan, filologik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalariga yuklatib qo'yilgan. Mamlakatga esa filolog va tarjimonlardan ko'ra, maktablar, akademik litsey uchun ko'proq o'qituvchi kadrlar kerak! Qator viloyatlar (Qashqadaryo, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston) dagi universitetlarning nemis tili bo'limlari va kafedralarida nemis tili nazariyasi va uni o'qitish metodikasidan mutaxassislashmagan, ilmiy darajalari va unvonlari yo'q o'qituvchilar ishlamoqda. Bu esa sifatsiz ta'lim va olmon tili bo'yicha yetarli bilim va malakaga ega bo'lmagan mutaxassislar deganidir.

Shundan kelib chiqib, mutasaddi idoralar O'zbekistonda nemis tilini o'qitish borasidagi ishlarni qayta ko'rib chiqadilar, degan umiddamiz. Nemis tiliga munosib e'tibor, baho va ahamiyat berib, uning yurtimizda o'qitilayotgan chet tillar ichidagi ulushini ko'taradilar. Bu esa nemiszabon mamlakatlar bilan hamkorlikni yanada yuqori pog'onaga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Ishonch bilan





ta'kidlab o'ta olamizki, O'zbekiston Germaniya federativ respublikasi bilan ta'lim sohasida bo'lgan ilmiy-pedagogik aloqalari yanada kuchayadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Braun Peter: «Tendenzen in der deutschen Gegenwartsprache» Stuttgart 1993.
2. Duden: Deutsche Universalbuch. Mannheim 2003.
3. Deutschland, N3, 19. Mai 2006.
4. [www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz)
5. [ziyo.uz](http://ziyo.uz)

